


**2026-yilning 1-choragi davomida X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi va uning hududiy bo‘limlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati yuzasidan  
TAHLILIY MA’LUMOT**

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markaziga **2026-yilning I choragi** davomida (*keyingi o‘rinlarda – hisobot davrida deb yuritiladi*) jami **186 ta** (*o‘tgan yildan 96 ta qoldiq bo‘lib o‘tgan alohida*) murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan, 36 murojaatlar o‘rganish jarayonida qolgan. O‘tgan 2025-yilning xos davri bilan solishtirganda (169 ta) murojaatlar 27 taga ko‘paygan.




Kelib tushgan murojaatlardan 164 tasi ariza (*2025-yil 1-chorakda 164 tasi*), **22 tasi** shikoyatlarni (*2025-yil 1-chorakda 22 ta*) tashkil etadi.

Shundan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali jami **62 ta** murojaatlar kelib tushgan. (*2025-yilning 1-choragida 61 ta*)

| Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha |                   |                       |                        |             |                                                      |                      |
|---------------------------------------------------------------|-------------------|-----------------------|------------------------|-------------|------------------------------------------------------|----------------------|
| Jami murojaatlar soni<br>(2+3+4+5+6+7)                        | Shundan           |                       |                        |             |                                                      |                      |
|                                                               | Qanoatlantirilgan | Tushuntirish berilgan | Ko‘rmasdan qoldirilgan | Rad etilgan | Tegishligi bo‘yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan | O‘rganish jarayonida |
| 1                                                             | 2                 | 3                     | 4                      | 5           | 6                                                    | 7                    |
| 62                                                            | 16                | 36                    | 0                      | 0           | 1                                                    | 0                    |

Markazga kelib tushgan murojaatlar xususiyati tahliliga ko‘ra, xususan, arizalarning 93 tasi sud ekspertlik faoliyati bilan bog‘liq masalalarda, 71 tasi boshqa masalalar bo‘yicha, shikoyatlarning **17 tasi** davlat sud ekspertlari tomonidan berilgan xulosadan norozi bo‘lib, **5 tasi** boshqa masalalarda yo‘llanganligi aniqlandi.

Arizalarni ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra 219 tasi hal etilgan bo‘lib, shundan **93 tasi** qanoatlantirilgan, **126 tasiga** huquqiy tushuntirish berilgan. Shuningdek, **3 ta ariza** ijroda tegishli tartibda ko‘rib chiqish uchun boshqa tashkilotga yuborilgan. 2026-yilning 2-choragiga **34 ta** qoldiq bo‘lib o‘tgan.



Shikoyatlar ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra barchasiga huquqiy tushuntirish berilgan.

Markaz va uning hududiy bo‘limlariga kelib tushgan har bir murojaatni **smart.office.adliya.uz** elektron hujjat almashinuv dasturiga kiritish, murojaatni to‘liq o‘rganish hamda ularga qonunda belgilangan muddatlarda javob berish masalalariga alohida e‘tibor qaratilib, murojaatlar bilan ishlash tizimini yanada samarali tashkil etish chora tadbirlari ko‘rib borilmoqda.

Markaz Ilmiy kengash yig‘ilishlarida va rahbariyat huzuridagi tezkor yig‘ilishlarda murojaatlarni ko‘rib chiqishda aniqlangan xato va kamchiliklar doimiy ravishda muhokama qilinib, kamchiliklarni bartaraf etish, murojaatlarni ko‘rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar berib kelinmoqda.

Bo‘lim boshlig‘i



N. Murodullayev